


7	O'quv dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2023-yil 29-avgustdagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan namuna asosida ishlab chiqilgan va Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Kengashining 2024 yil "30" avgustdagi 1/3-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
8	<b>Fan/modul uchun mas'ul:</b> Amonov M.O. – TISU, "Iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD
9	<b>Taqrizchilar:</b> Xatamov O.Q. – Termiz davlat universiteti "Kompyuter va dasturiy injenering" kafedrasida mudiri, i.f.d., professor. Abdulxayeva G.M. – Termiz davlat universiteti "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI**



Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
rektorining o'rinbosari A. Sattorfoev

Ro'yxatga olingan: MD-70410102-1.06  
2024 yil "30" avgust

**“ISHLAB CHIQRISHNI TASHKIL ETISH”**

**O'QUV DASTURI**  
(Magistratura talabalari uchun)

Bilim sohasi: 400 000 - Biznes, boshqaruv va huquq  
Ta'lim sohasi 410 000 - Biznes va boshqaruv  
Mutaxassisligi: 70410102 - Iqtisodiyot

Termiz – 2024

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS-kreditlar	
ICHTE2105	2024-2025	2	5,0	
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari		
Majburiy	O'zbek	6		
Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.		60	90	150
Ishlab chiqarishni tashkil etish				
1.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b> - magistrlarda ishlab chiqarishni tashkil etish tushunchalarini berish, mehnat jarayonida ishlab chiqarish resurslari va mehnat qurollaridan oqilona foydalanib, belgilangan vazifani bajarish va yuqori samaradorlikka erishishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida tushunchalar paydo qilishdir. Magistrarga "Ishlab chiqarishni tashkil etish" fani bo'yicha so'nggi o'zgarishlarni tushunish uchun zarur bilimlarni beradi hamda ko'nikma va malaka shakllantiradi.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> - Ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilishning murakkab bo'lgan usullari orqali turli raqobat jarayonlarini, kon'yunkturaviy o'zgarishlarni yoritib berish, shu bilan bir qatorda biznes muhitini tashkil etish, iste'molchi xulq-atvorini modellashirish, tovarning sifatini, uning raqobatdoshligini ta'minlash, firmaning bozordagi strategiyalarini to'g'ri tanlash bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.</p>			
2.	<p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Sanoat korxonalarining iqtisodiyotda tutgan o'rni</b></p> <p>Korxonalar - milliy iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo'g'inidir. Korxonalar iqtisodiyoti asoslarini bilish malakali mutaxassislar tayyorlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti va raqobatchilik sharoitlarida korxonalar faoliyatini amalga oshirishni ta'minlovchi zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar, kadrlar potentsiali va kadrlar siyosati, mehnatga haq to'lash, resurslar va ulardan foydalanish, ishlab chiqarishni rejalashtirish va prognozlash, investitsion va innovatsion faoliyat, xarajat, daromad va rentabellik, bahoni shakllantirish, korxonaning tijorat siri va iqtisodiy xavfsizligi kabilar.</p> <p><b>2-mavzu. Ishlab chiqarishni tashkil etishning umumiy asoslari</b></p> <p>Korxonalar ixtisoslashuv darajasi eng avvalo tanlangan ishlab chiqarish turi bilan belgilangan. Ishlab chiqarish turi, uning tashkiliy-texnik xususiyatlari</p>			

	<ul style="list-style-type: none"> <li>•kichkina guruhlarda ishlash;</li> <li>• loyiha ishi bajarish;</li> <li>• mustaqil ishlarni baholash;</li> <li>• taqdimot tayyorlash;</li> <li>• turli darajadagi testlarni o'tkazish;</li> </ul> <p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil muhohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish kerak.</p>
5.	<p><b>VIII ADABIYOTLAR</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yuldasheva S.N. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. O'quv qo'llanma, Durdona nashryoti, 2020 yil. 290 bet.</li> <li>2. A.Ortiqov "Sanoat iqtisodiyoti" (darslik), T.: TDIU. 2004</li> <li>3. E.Maxmudov "Korxonalar iqtisodiyoti": (o'quv qo'llanma), T.: TDIU. 2014. 208-bet</li> <li>4. Abdulkarimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2013 – 256 t.</li> <li>5. Yo'ldoshev N.Q., Zaxidov G.E. Menеjment . Darslik. T.:TDIU, 2018 y. - 392 b.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli Farmoni</li> <li>2. Глухов В.В. Менеджмент: Учебник. 3-изд.- СПб Питер, 2019.- 608. 2 экз.</li> <li>3. Vahobov A va boshqalar. Moliyaviy boshqaruv tahlili Darslik. – T.: —Sharq. 2019 – 254b.</li> <li>4. Hamroev O.H. Iqtisodiy muvozanat va uni ta'minlash mexanizmlari – T.: TDIU. 2014</li> </ol> <p><b>Axborot manbaalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. www.lex.uz</li> <li>2. www.uza.uz</li> <li>3. www.unilibrary.uz</li> <li>4. www.economics.ru</li> <li>5. www.ziyounet.uz</li> </ol>
6.	

<p>yig'indisi bilan xarakterlanadi. Ushbu xususiyatlar bir vaqtda va doimiy ravishda ishlab chiqarishga kiritilayotgan bir turdagi mahsulot miqdori shuningdek mahsulot turi bilan belgilanadi. Tanlangan ishlab chiqarish turi ishlab chiqarish jarayonining tashkiliy-texnik parametrlarini shakllantirishga, ishlab chiqarishni texnik tayyorlash, rejalashtirish, nazorat qilish usullarini tanlash, sex, uchastkalarining tashkiliy tuzilmasini tuzish, joylashtirish, texnologik jarayonlarni ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish me'yorini ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi.</p>	<p><b>3-mavzu. Ishlab chiqarishni texnikaviy rivojlantirish va tashkil qilish</b> Korxonada texnikaviy rivojlantirish darajasi eng avvalo tanlangan ishlab chiqarish turi bilan belgilangan. Ishlab chiqarish turi uning tashkiliy-texnik xususiyatlari yig'indisi bilan xarakterlanadi. Ushbu xususiyatlar bir vaqtda va doimiy ravishda ishlab chiqarishga kiritilayotgan bir turdagi mahsulot miqdori shuningdek mahsulot turi bilan belgilanadi. Tanlangan ishlab chiqarish turi ishlab chiqarish jarayonining tashkiliy-texnik parametrlarini shakllantirishga, ishlab chiqarishni texnik tayyorlash, rejalashtirish, nazorat qilish usullarini tanlash, sex, uchastkalarining tashkiliy tuzilmasini tuzish, joylashtirish, texnologik jarayonlarni ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish me'yorini ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi.</p>	<p><b>4-mavzu. Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni tashkil etish</b> Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni tashkil etish mahsulot partiyasini tayyorlash jarayonining tizimini ifodalaydi. Ushbu usul asosan seriyali ishlab chiqarish korxonalarida keng nomenklaturadagi mahsulotni ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirishning asoslaridan biridir. Fan-texnika taraqqiyoti iqtisodiyotni rivojlantirishning hamma omillariga muayyan ta'sir ko'rsatadi, mehnat resurslaridan, ishlab chiqarishning asosiy fondlaridan, moddiy resurslaridan oqilona foydalanish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga erishish imkonini beradi.</p>	<p><b>5-mavzu. Sanoat korxonasi ishlab chiqarish dasturi va quvvati</b> Ishlab chiqarish korxonalarini o'z faoliyatlarini davomida juda ko'p turdagi instrument va texnologik jihozlardan foydalanadilar. Ish joylarining ana shu instrument va uskunalardan o'z vaqtida ta'minlanishi va ularning takomillashganlik darajasi asosiy ishchilarning mehnat unumdorligiga, mahsulot sifatiga va tannarxiga korxonaning bir me'yorda ishlaganiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishga avtomatlashtirilgan, mexanizatsiyalashtirilgan yangi texnologiyani keng joriy qilish asbob uskuna va texnologik uskunalarning sifati, chidamliligi, aniqliligi kabi ko'rsatkichlariga yuqori talablar qo'yadi. Texnologik uskuna-texnologik jarayonning belgilangan qismini bajarish uchun</p>
--	---	---	--

<p>oshirishdagi o'rni</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>34. Dastgohlarni rejali-ogohlantiruvchi ta'mirlash tizimi va uning me'yorlari</li> <li>35. Ta'mirlash ishlarini rejalashtirish va boshqarish</li> <li>36. Ta'mirlash ishlarini samaradorligini oshirish yo'llari</li> <li>37. Asbobozlik xo'jaligini tashkil qilish va rejalashtirish</li> <li>38. Asbobozlik xo'jaligi samaradorligini oshirish yo'llari</li> <li>39. Transport xo'jaligini tashkil qilish</li> <li>40. Yuk tashish marshrutlari turlari</li> <li>41. Energetika xo'jaligini tashkil etish</li> <li>42. Energetika xo'jaligining ahamiyati va vazifalari</li> <li>43. Ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlashni tashkil qilish</li> <li>44. Ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlashda innovatsiyaning o'rni</li> <li>45. Ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlashni tashkil qilish</li> <li>46. Mehnatni ilmiy tashkil etishning mazmuni va asosiy yo'nalishlari</li> <li>47. Mehnatni ilmiy tashkil etish shakllari</li> <li>48. Korxonalarda ish haqi va mehnatni rag'batlantirishni tashkil qilish</li> <li>49. Ish haqining tarif sistemasi</li> <li>50. Boshqaruv jarayonini tashkil etish haqida tushuncha</li> <li>51. Boshqaruvning tashkiliy strukturasi</li> <li>52. Ilmiy izlanishlarni tashkil qilish</li> </ol> <p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b> Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalarga ishlab chiqarishni tashkil etish asoslarini makro va mikro iqtisodiy darajada o'rgatish asosida ularning yetuk va yuqori malakali mutaxassis bo'lishlarini hamda olingan bilimlari asosida o'qish va ilmiy izlanishlarini davom ettirishlarini ta'minlashdir;</li> <li>- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etishning rivojlanish tarixi va hozirgi holati, ishlab chiqarishni texnologiyasi, tashkilotlar va ularni boshqarish, mehnatni tashkil qilish, kichik biznesni faoliyat yuritishining tashkiliy jihatlarini, korxonani boshqarish, tovarlar raqobatbardoshligini boshqarishni o'rganish, ularidan amaliyotda foydalanish, kadrlarni o'qitish va ularning iqtisodiyotni boshqarishda samarali foydalanish, menejment samaradorligi ko'rsatkichlari va uni baxolash usullarini o'rganishdir.</li> </ul>	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• real vaziyatga asoslanadigan amaldagi ishlarni baholash;</li> <li>• esse, tezis va maqolalar yozish;</li> <li>• vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;</li> <li>• jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;</li> <li>• muhokamalarda qatnashish;</li> </ul>
--	---

texnologik jihozlarga birlashtirilgan ishlab chiqarish qurollaridir. Masalan, turli xil asbob uskunalar, press-shakllar va nazorat qilish vositalari.

#### 6-mavzu. Sanoat korxonasi yordamchi ishlab chiqarishlar va xo'jaliklar ishini tashkil etish

Jihozlarni ekspluatatsiya qilish jarayonida ular moddiy va ma'naviy eskiradi. Buning natijasida uning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari o'zgaradi: quvvati pasayadi, unumdorligi va aniqligini kamaytiradi. Jihozlarni yaxshi ish sharoitida ushlab turish uchun doimiy ravishda texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini tashkil qilish uchun korxonada ta'mirlash xo'jaligi tashkil etiladi. Ba'zi bir korxonalarda, masalan, kimyoviy tozalashda mahsulotlar transportirovkasi barcha xarajatlarning 30-40% ni tashkil etadi. Shuning uchun ham korxonalarda transport xo'jaligi ishni samarali tashkil etish, yuqori unumli, avtomatlashtirilgan tarnsport vositalarini joriy etish eng asosiy vazifalar qatoriga kiradi.

#### 7-mavzu. Sanoat korxonalarida mehnat va ish haqini tashkil etish

Mehnatni tashkil qilish – mehnat jarayoni boshlanishdan oldin maqsadni belgilash, uslub va vositalarini tanlash hamda mehnat jarayonida ularga rioya qilinishi va ularning maqsadga erishishi uchun ishlashini ta'minlash demakdir. Ishlab chiqarishning ijtimoiy shakllaridan chetga chiqish sabablari, jamiyat taraqqiyotini har qanday bosqichida mehnat mavjud bo'lganligi tufayli uni samarali tashkil etish masalalari. Ishlab chiqarish korxonalarida mehnatni tashkil etishni asosiy elementlari. Ishlab chiqarishning jamoa shakllari manufaktura va kooperatsiyalar vujudga kelganidan keyin mehnatni tashkil etish ayrim ijrochilargina emas balki ularning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish uning eng muhim funktsiyalaridan biriga aylandi. Mehnatni tashkil etish mehnatning miqdor va sifat nisbatlarini belgilash va ularga rioya qilish, ularni takomillashtirib borishni nazarda tutadi.

#### III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihatlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Sanoat korxonalarining iqtisodiyotda tutgan o'rni
2. Ishlab chiqarishni tashkil etishning umumiy asoslari
3. Ishlab chiqarishni texnikaviy rivojlantirish va tashkil qilish
4. Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni tashkil etish
5. Sanoat korxonasi ishlab chiqarish dasturi va quvvati

6. Sanoat korxonasi yordamchi ishlab chiqarishlar va xo'jaliklar ishini tashkil etish

7. Sanoat korxonalarida mehnat va ish haqini tashkil etish

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda korxonalarining o'rni
2. Korxonada tushunchasi, turlari va vazifalari
3. Korxonani tashkil etish
4. Korxonani boshqarishni tashkil etish
5. Korxonani tugatish va qayta tashkil etish
6. Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari
7. Mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha ma'suliyatli jamiyat
8. To'liq shirkatlar, kommandit shirkatlar
9. Aksiyadorlik jamiyatlari
10. Aksiyadorlik jamiyatlarining huquqiy asoslari
11. Aksiyadorlik jamiyatlarining turlari
12. Aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish
13. Aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish
14. Aksiyadorlik jamiyatlarini qayta tashkil etish va tugatish
15. Mamlakat iqtisodiy ravnaqida kichik biznes va xususiy korxonalarining o'rni
16. Kichik biznes va xususiy korxonalarini tashkil qilish
17. Biznesni tashkil qilishning asosiy bosqichlari
18. Kichik biznes va xususiy korxonalarini ro'yxatdan o'tkazish
19. Kichik va o'rta biznesni tashkil etishda tadbirkorlik g'oyasini tanlash
20. Kichik biznes va xususiy korxonalarini tashkil etishda tadbirkorlik imkoniyatlari tahlili
21. Kichik biznes va xususiy korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi
22. Kichik biznes va xususiy korxonalarini tashkil etishda risk
23. Kichik biznes va xususiy korxonalarida risklarni boshqarish
24. Kichik biznes va xususiy korxonalarida risklarni baholash
25. Korxonaga va xususiy mulk
26. Korxonani ishlab chiqarish strukturasi
27. Korxonaning ishlab chiqarish strukturasi samaradorligi
28. Korxonaga faoliyatida asosiy ishlab chiqarishning o'rni
29. Asosiy ishlab chiqarishni takomillashtirishning ahamiyati
30. Ishlab chiqarish turlari va ularning texnik-iqtisodiy tasnifi
31. Ishlab chiqarishni tashkil qilish usullari
32. Ta'mirlash xo'jaligini tashkil qilish
33. Ta'mirlash xo'jaligining vazifalari va ishlab chiqarish samaradorligini